

## NAVOYI ASARLARIDAGI TAXALLUSLAR

**Nishonboy Xusanov,**  
*TDO‘TAU professori,*  
*fil.fan.doktori*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Navoiyning taxallus tanlash haqidagi asosli fikrlari, Navoiy asarlarida qo‘llanilgan taxalluslarning qiyosiy tahlili haqida so‘z yuritiladi.

*Kalit so‘zlar:* ijodkor, ism, taxallus, nominativ birlik, badiiy asar, nasriy asar, nazmiy asar, qiyosiy tahlil.

O‘zbek tilining antroponimik birliklari nomlanish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan: ism – asosiy, taxallus esa qo‘shimcha nomdir. Ijodkor taxallusni an’anaga ko‘ra yoki sir saqlash maqsadida qo‘llaydi, ya’ni shu nom orqali o‘zligini namoyon qiladi. Taxallus ijodkor tomonidan o‘ylab topilgan, ism o‘rniga ishlatiladigan to‘qima yoki qabul qilingan qo‘shimcha ismdir. U alohida holatda yoki ism bilan birga qo‘llaniladi. Taxallus arabcha so‘z bo‘lib, lug‘atlarda “xalos bo‘lish”, “qutilish”, “ramziy nom” ma’nolarida kelishi aks etgan.

Taxallus va ism shaxsni ajratib ko‘rsatuvchi nominativ birliklar hisoblansa-da, quyidagi xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi: ism ota-ona tomonidan qo‘yiladi, taxallusni esa ijodkorni o‘zi tanlaydi va qo‘yadi; ismda ota-onaning, taxallusda ijodkorning maqsadi aks etadi: ism asosan nominativ vazifani bajaradi, taxallus esa ijodkorni namoyon qilish, ta’kidlash maqsadida tanlanadi (1, 38).

XV asr yodgorliklarida boshqa davrlarga qaraganda ko‘proq taxallus ishlatilgan: ijodkorlari – Navoiy, Ahmadiy, Gadoiy, Atoyi, Lutfiy, Sakkokiy, Sayyid Qosimiy, Xo‘jandiy, Yusuf Amiriy, Yaqiniy, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Husaynilar ham taxalluslari orqali tanilgan va nom qozongan.

Taxalluslarni o‘rganishda Alisher Navoiyning asarlari — “Xazoyinul maoniy”, “Xamsa”, “Lison-ut-tayr”, “Masholis-un-nafais”, “Mezonul-avzon”, “Xamsat-ul-mutaxayyirin”, “Muhokamat-ul-lug‘atayi”, “Mahbub-ul-qulub”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” va boshqalar muhim ahamiyatga ega.

Ijodkorlar avvalo taxallusning nominativ xususiyatiga jiddiy e’tibor berishgan, ya’ni har bir ijodkor boshqalarnikidan farq qiluvchi taxallus tanlashga harakat qilgan. Bunda taxallus ma’nosi va qo‘llanilishiga ko‘ra boshqalardan ajralib turishi nazarda tutilgan. Alisher Navoiy ikki shoirning bitta taxallus bilan ijod qilishi (shiriklik) noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydi: “Mavlono Zamoniyy – Mavlono Muhammad Omiliyning o‘g‘lidurkim, ikkinchi majlisda oti mazkur bo‘ldi. “Vafoiy” taxallus qilur erdi. Faqir iltimosi bila “Zamoniyy”g‘a tag‘yir

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

berdi. Ikki jihatdin; bir jihat bukim, Sulton Badiuzzamon Mirzo mulozimi erdi, “Zamoniy” taxallusining munosabati anga ko‘p bor erdi, yana bir jihat bukim, Ahmad Hojibek “Vafoiy” taxallus qilur va she‘ri mashhurdir va devoni ham bor. Munosib ermas erdikim, ulug‘ kishiga bejihat taxallusda sherik bo‘lg‘ay” (2,MN-359).

Navoiyning taxallus tanlash haqidagi fikrlari asosli va muhim: ikki ijodkor bir taxallus bilan yozsa, ularni farqlashda qiyinchilik yuzaga keladi hamda bir ijodkor mashhur bo‘lsa, unga taxallusda sherik bo‘lishi kerak emas.

Taxallus tanlayotganda hamma narsani – so‘zning ma‘nosini, ijtimoiy holatni, davrni hisobga olish zarur. Navoiy taxallus va kunya orasidagi farqqa jiddiy e‘tibor qaratgan. Ba‘zi ijodkorlar kunyani taxallus qilib tanlashgani xato ekanini ta‘kidlab yozadi: “Mavlono Bu – Ali devonavor yurur. Devona bo‘lmasa erdi, “Bu Ali” taxallus qilg‘aymu erdi” (2,MN-363).

Navoyi asarlarida qo‘llanilgan taxalluslarni qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, bu davr ijodkorlarining asosiy qismi bitta taxallusda, boshqalari esa ikki va undan ortiq taxallusda asarlar yaratishgan. Alisher Navoiyning “Majolus-un nafa’is” asarida ikki va undan ortiq taxalluslar bilan ijod qilgan shoirlar haqida qiziqarli ma‘lumotlar mavjud. Xususan, Mavlono Yahyo Sebak taniqli shoir, aruzshunos olim va xattot bo‘lgan. Nishopurda yashagan bu shoir “avval “Tuffohiy” taxallus qilur edi. So‘ngra “Fattohiy” taxallus qildi. Ammo “Xumoriy” va “Asroriy” ham taxallus qilibtur” (2,MN-297). Bu taxalluslar quyidagi ma‘nolarga ega: **Sebak** (سيبك) – forscha so‘z bo‘lib, “sarg‘ish olma”, “olma” ma‘nosini anglatadi. **Tuffohiy** (طوفاحى) – “kezuvchi”, “aylanuvchi”. **Fattohiy** (فتاحى) – “ochuvchi”, “hal qiluvchi”, “g‘olib”. **Xumoriy** (خمارى) – “orzu qiluvchi”, “qo‘msovchi”. **Asroriy** (اسرارى) – “sirdosh”, “sirlarini asrovchi”.

Boysung‘ur Mirzo zamonida yashagan shoir Bobo Savdoiy ham ikki taxallus bilan ijod qilgan: “Avval “Xovariy” taxallus qilur erdi. G‘aybi olamdin anga jazba yetdikim, aqli zoyil bo‘lub, eldin chiqib bosh-ayog‘ yalang devonalardek tog‘u dashtda kezar erdi. O‘z holig‘a kelib elorasig‘a kirgandan so‘ngra, “Savdoiy” taxallus qildi” (2,MN-301). **Savdoiy** (سودايى) – “shaydoliq”, “tentaklik”, “hayolli”. **Xovariy** (خاورى) – “sharqlik”, “kun chiqishlik”, “quyoshli”.

Alisher Navoiy o‘zining nazmiy va nasriy asarlarida “Navoiy” taxallusini, forscha she‘rlari va “Lison-ut-tayr” dostonida “Foniy” taxallusini qo‘llaydi. Shoir asarlariga tuzilgan lug‘atlarda va unga bag‘ishlangan tadqiqotlarida taxallus uchun asos bo‘lgan **Navo** (نوا) quyidagi ma‘nolarni anglatishi qayd etilgan: “ohang”, “kuy”, “mungli un”, “ovoz”, “boylik”, “bahra”, “nasib”.

Ulug‘ mutafakkir o‘z asarlarida navo so‘zini va Navoiy taxallusini turli

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ma’nolarda qo‘llagan, so‘z va taxallus munosabatini o‘ziga xos jihatlarini namoyon qilgan:

Navosiz ulusning navobaxshi bo‘l,  
Navoiy yomon bo‘lsa, sen yaxshi bo‘l.  
Navoiy, istama ko‘p ishq aro navo,  
Bu bog‘ bulbulig‘a yetmadi navo hargiz.

Navoiy “Lison-ut-tayr” dostonida “Foniy” taxallusini quyilishini shunday ta’riflaydi:

Dahr bog‘ida bo‘lub komim ravo,  
Komronlar topti nazmimdan navo.  
Fayz yetgach ul maoniydan mango mango,  
Topti belgu nazmi Foniydan mango.  
Chun “Lison ut tayr” og‘oz ayladim,  
Turfa qushlar birla parvoz ayladim (2,LT, 285).

**Foniy** (فانی) taxallusi uchun asos bo‘lgan “fano” so‘zi ham Navoiy asarlarida quyidagi ma’nolarda ishlatilgan: “baqosizlik”, “yo‘q bo‘lish”; “o‘zlikdan kechish”, “tasavvuf yo‘liga kirish”; “o‘lim”, “ajal”. Navoiy ham ijodining so‘ngi yillarida o‘zining fano ahlidan deb bilgan. Umuman, **Navoiy va Foniy** taxalluslarini asarlarida o‘z o‘rnida qo‘llaganligini ta’kidlab ulug‘ mutafakkir shunday yozadi:

Chun sahobi ta’bim o‘ldi durfishon,  
Nazmima erdi Navoiydan nishon (2,LT, 285).  
Gar taxallus munda Foniy ayladim,  
Bu tanosiblardan ani ayladim (2,LT, 286).

Navoyi asarlaridagi ijodkorlarning ko‘pchiligi bir taxallusli bo‘lib, ular taxalluslarini o‘zlarining tabiati, xarakteri, kayfiyati, holati, turmush tarzi va dunyoqarashidan kelib chiqib tanlaganlar. Alloma asarlaridagi taxalluslarni nomlanish omiliga ko‘ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin.

1. Ijodkorning asosiy kasbi va hunariga asoslangan taxalluslar. Navoyi asarlarida turli-tuman kasb va hunarga oid taxalluslar mavjud bo‘lib, ular o‘sha davr nomshunosligi haqida muhim ma’lumotlar beradi. Sakkokiy (سکاکى) – “pichoqchi”. Bu taxallus haqida Navoyi “Majolis un nafois”da qiziqarli ma’lumotni keltiradi: “Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdir. Samarqand ahli anga ko‘p mu’taqiddurlar va bag‘oyat tarifin qilurlar. Ammo faqir Samarqadda erkanda muarriflaridin har necha tafahhus qildimkim, anim natoiji ta’bidin biror nima anglayin, ta’rif qilg‘olarg‘a nima zoxir bo‘lmadi. Barchadin qolsalar so‘zlari budurkim, Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi she’rlari aningdurkim,

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

o‘g‘urlab o‘z otiga qilibdur. Ul yerlarda bu nav o‘xshashi yo‘q, mazasiz muxobaralar gohi voqe’ bo‘lur. Bori ba’zisi ta’rif qilibkim o‘qurlar, bu matlaki anga isnod qilurkim:

Ne nozu bu, ne shevadur, ey jodu ko‘zluk, sho‘xshang,  
Kabki dariy tovusda yo‘q albatta bu raftoru rang (2,MN-333).

Navoiy asarlarida Nomiy, Kotibiy kabi o‘ziga xos taxalluslar ham uchraydi. Xat, noma yozuvchilarni Navoiy shunday ta’riflaydi: “Mavlono Nomiy – sabzavorliqdur. Insho bilan noma xatin biturga mashhurdur. Ammo inshoda hech munshiy oni begonmas” (2,MN,-384). **Nomiy** (نامی) – “xat, noma yozuvchi”. **Kotib** (کاتب) – “xattot”. **Kotibiy** (کاتبی) – “kitobot qiluvchi”, “xattot”. Shoir Shamsiddin Muhammad yaxshi xattot bo‘lgani uchun bu taxallusni qabul qilgan. **Munshiy** (متشی) – “yozuvchi”, “kotib”

**Binoiy** (بنایی) – “bino qiluvchi”, “imorat quruvchi”. Mavlono Binoiyning otasi Banno – binokor bo‘lgani uchun u shu taxallusni tanlagan.

**Attor** (عطار) – “turli narsalar sotuvchi”. “Mantuqut tayr” asarining muallifi Fariduddin Attor bu taxallusni otasi attor bo‘lgani uchun qabul qilgan.

Har necha gardun bahri ila konida bor,  
Oncha yuz Attor do‘konida bor (2,LT, 26).

**Kushtigir** (کشتیگیر) – “kurashchi”, “yelkama-yelka kurashchi”. Shoir, tabib va musiqachi Pahlavon Muhammad yelkasi yerga tegmagan kurashchi bo‘lgani uchun bu taxallusni qabul qilgan.

**Riyoziy** (ریاضی) — “matematik”, “hisoblovchi”. Shoir, hofiz va ilmi nujum bilimdoni Imomuddin Riyoziy Samarqandiy devon yaratgan ijodkor bo‘lgan.

**Udiy** (عودی) — “ud musiqa asbobi”. Bu musiqa asbobida kuy va qo‘shiq ijro etgan mohir san’atkor haqida Navoiy “Xamsatul mutahayirin” asarida shunday yozadi: “Mutaharri Udiykim, hushovozliqda Zuxroning otasi va hushxonlikda aning farzandi ruhafzosi bo‘la olur”.

2. Ijodkorlarning turmush tarzi, ichki dunyosi, ma’naviy qarashi, orzu-istagi, turli xususiyat va fazilati asos bo‘lgan taxalluslar. Navoiy har bir ijodkorning fe’l-atvori, fazilati, kamchiligi, dunyoqarashi uning taxallusida aks etgan deb hisoblaydi. Xususan, Mavlono Qalloshiy haqida shunday yozadi: “..atvori taxallusig‘a munosib kishidur. Go‘yo ushbu munosabatdin bu taxallusni ixtiyor qilibdur” (MN, 9-366). Navoyi asarlarida belgi-xususiyat va fazilatlarga asoslangan juda ko‘plab taxalluslar uchraydi: **Qalloshiy** (قلاشی) – “yalqov”, “daydi”; **Sofiy** (صافی) – “sof”, “toza”. “Mavlono Sofiy-Ko‘hisof shayxzodalaridindur. Taxallusi ham anga dalolat berur” (2,MN-363); **Ashraf** (اشرف) – “sharafli”, “asl zotli”. “Xamsa”, 4 ta she’riy devon yaratgan Abu Ali

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMYIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Husayn ibn Hasan Marg‘iloniyning taxallusi (2,MN-296); **Qudsiy** (قدسى) – “poklik”, “muqaddaslik” (2,MN-731); **Siymiy** (سيمي) – “kumush”, “oq”, “aqcha” (2,MN-728); **Tole‘iy** (طالعي) – “ko‘rinuvchi”, “baxtli”, “iqbol” (2,MN-731); **Orifiy** (اريفي) – “biluvchi”, “dono” (2,MN-728); **Qadimiy** (قديمي) – “oldingi”, “eski” (2,MN-731); **Qutbiy** (قطبي) – “boshliq”, “avliyo” (2,MN-731); **Naimiy** (نعمي) – “ne‘matli”, “baxtli” (2,MN-728); **Zayniy** (زيني) – “ziynatli”, “chiroyli” (2,MN-321); **Muammoiy** (معمايي) – “jumboqli”, “ma‘nosi berkitilgan”: “ani Hiriy eli Piri Muammoyi” derlar edi (2,MN-316). **Yoriy** (ياري) – “yo‘ldosh”, “do‘st” (2,MN-312); **Ishqiy** (عشقي) – “oshiq”, “sevuvchi” (2,MN-323); **Havoyi** (حوايي) – “beqaror”, “o‘yinqaroq” (2,MN-324); **Sa‘diy** (سعدى) – “baxtli”, “yaxshilik” (2,MN-324); **Ayoziy** (ايازي) – “sof”, “toza”, “sovuq” (2,MN-325); **Anisiy** (انيسي) – “do‘st”, “ulfat”, “oshna”, “yoqimli” (2,MN-326); **Xatoiy** (حطايي) – “yanglishovchi”, “gunoh qiluvchi” (2,MN-328); **Xokiy** (حاكى) – “tuproqqa mansub”, “o‘ta kamtarin” (2,MN-331); **Muqimiy** (مقيمي) – “bir joyda yashovchi”, “doimiy turuvchi” (2,MN-333); **G‘aribiy** (غريبي) – “kimsasiz”, “musofir” (2,MN-335).

3. Ijodkorlar samodagi yulduz va jismlarini taxallus sifatida qo‘llaganlar: Navoiy asarlaridagi taxalluslarning ma‘lum bir guruhi osmon jismlariga bag‘ishlangan.

Ma‘lumki, arabcha kavkab so‘zi o‘zbek tilida “yulduz” degan ma‘noni anglatadi. Navoiy bu taxallus egasiga shunday izoh beradi: “Mavlono Kavkabiyy – munajjim yigitdur va o‘z foniga munosib taxallus ixtiyor qilibdur” (2,MN-368). Ijodkorlar quyidagi osmon jismlarini taxallus sifatida qo‘llaganlar: **Shihob** (شهاب) – “o‘t”, “sho‘la”, “uchar yulduz” (2,MN-730); **Mushtariy** (مشتري) – “xaridor”, “Birjis” Yupiter planetasi (2,MN-307); **Nujumiy** (نجومى) – “yulduzlar” (2,MN-320); **Burjiy** (برجى) – “quyoshning yillik doirasida 12 burj” (oylar); **Shamsiy** (شمسى) – “quyosh”, “oftob” (2,MN-326); **Hiloliy** (هلالى) – “yangi ko‘ringan oy”; **Suhoiy** (سهايي) – “xira yulduz” (2,MN-350).

Umuman, Navoiy asarlarida ijodkorning tug‘ilgan joyi, ota-bobolariga hurmati va boshqa xususiyatlari asosida yuzaga kelgan taxalluslar ham mavjud. Taxalluslar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar natijasida shakllanadi va rivojlanib boradi. O‘zbek taxalluslarining leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, struktural va derivatsion xususiyatlari nomshunoslik yo‘nalishida o‘rganilgan bo‘lsa-da(3), davrlar va tarixiy yodgorliklar bo‘yicha maxsus tadqiqotlpr olib borish tarixiy nomshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev T., Vohidov R. Adabiy taxalluslar haqida. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978. — 59 b.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘qqizinchi jild. Lison ut-tayr (LT), Majolis un-nafois (MN). Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011, 768b.
3. Nizomova Shahnoza Ubaydullayevna. O‘zbek taxalluslarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. 10.00.01-O‘zbek tili.filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi
4. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.